

**Journal of Social Research in Uzbekistan****JOURNAL OF SOCIAL RESEARCH IN UZBEKISTAN**

journal homepage:  
<https://topjournals.uz/index.php/jsru>

**THE IMPORTANCE OF PROJECT PORTFOLIO MANAGEMENT IN THE STRATEGIC MANAGEMENT OF UNIVERSITIES*****Nafosat Niyozmetova****Researcher**Higher School of Business and Entrepreneurship  
Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

**Key words:** project management, university, management, innovation, resource management, education quality, project coordination, competitiveness, skill development, strategic planning.

**Received:** 03.10.24**Accepted:** 05.11.24**Published:** 07.11.24

**Abstract:** This article analyzes the role and importance of project portfolio management (PPM) in the strategic management processes of universities. PPM helps universities effectively manage their resources, implement innovations, and achieve strategic goals. Additionally, the article discusses key challenges encountered when implementing PPM, such as resource shortages, a lack of qualified personnel, and the need to coordinate projects. Effective solutions and recommendations to overcome these challenges are provided. The use of PPM in universities enhances their competitiveness and supports success in delivering high-quality education and research.

**UNIVERSITETLARNI STRATEGIK BOSHQARISHDA LOYIHA PORTFELI  
MENEJMENTINING AHAMIYATI*****Nafosat Niyozmetova****Tadqiqotchi**Biznes va tadbirdorlik olyy maktabi  
O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

**Kalit so'zlar:** loyiha portfeli menejmenti, universitet, strategik boshqaruv, innovatsiya, resurslarni boshqarish, ta'lif sifati, loyiha koordinatsiyasi, raqobatbardoshlik, malaka oshirish, strategik rejash.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada universitetlarda loyiha portfeli menejmenti (LPM)ning strategik boshqaruv jarayonida tutgan o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. LPM universitetlarga o'z resurslarini samarali boshqarish, innovatsiyalarni joriy etish va strategik maqsadlarga erishishda yordam beradi. Shuningdek, maqolada LPMni amalga oshirishda duch kelinadigan asosiy qiyinchiliklar, xususan resurs yetishmasligi, malakali kadrlar

yetishmovchiligi va loyihalar o'rtasidagi koordinatsiyani ta'minlash kabi masalalar ko'rib chiqiladi. Ushbu muammolarni yengib o'tish bo'yicha samarali yechimlar va tavsiyalar keltirilgan. Universitetlarning LPMdan foydalanishi ularning raqobatbardoshligini oshirish va sifatli ta'lim hamda tadqiqotlar olib borishda muvaffaqiyat qozonishlariga imkon beradi.

## ЗНАЧЕНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ПОРТФЕЛЕМ ПРОЕКТОВ В СТРАТЕГИЧЕСКОМ УПРАВЛЕНИИ УНИВЕРСИТЕТАМИ

**Нафосат Ниёзметова**

*Исследователь*

*Высшая школа бизнеса и предпринимательства*

*Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** управление портфелем проектов, университет, стратегическое управление, инновации, управление ресурсами, качество образования, координация проектов, конкурентоспособность, повышение квалификации, стратегическое планирование.

**Аннотация:** В статье анализируется роль и значение управления портфелем проектов (UPP) в процессах стратегического управления университетами. UPP помогает университетам эффективно управлять ресурсами, внедрять инновации и достигать стратегических целей. Кроме того, в статье рассматриваются основные проблемы, возникающие при внедрении UPP, такие как нехватка ресурсов, недостаток квалифицированного персонала и необходимость координации проектов. Представлены эффективные решения и рекомендации для преодоления этих проблем. Использование UPP в университетах повышает их конкурентоспособность и способствует успеху в предоставлении качественного образования и исследований.

Universitetlarni strategik boshqarishda loyiha portfeli menejmentining ahamiyati katta bo'lib, bu yondashuv orqali oliy ta'lim muassasalari o'z resurslarini samarali boshqarishi, strategik maqsadlariga erishish uchun aniq yo'nalishlarni belgilashi va raqobatbardoshligini oshirishi mumkin. Loyiha portfeli menejmenti universitetlarning rivojlanish va modernizatsiya qilish bo'yicha turli loyihalarni tizimli ravishda boshqarishni ta'minlaydi. Ushbu maqolada universitetlarni strategik boshqarishda loyiha portfeli menejmentining ahamiyati, uning asosiy tamoyillari va samaradorlik omillari haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Loyiha portfeli menejmenti (LPM) universitetlarning turli darajadagi loyihalarni bir vaqtning o'zida tahlil qilish, tanlash va boshqarish imkonini beradi. Bu uslub strategik rejalahshning eng muhim jihatlaridan biri bo'lib, oliy ta'lim muassasalari uchun zarur resurslarni optimallashtirish va ularni

eng yuqori samara beruvchi loyihalarga yo‘naltirish imkoniyatini yaratadi. LPM universitetlar uchun o‘z maqsadlariga erishishda yangi imkoniyatlar ochadi va rivojlanish yo‘nalishlarini aniq belgilashda katta yordam beradi. Mazkur menejment yondashuvi har bir loyihani universitetning umumiy strategik rejalarini va maqsadlari bilan bog‘lash orqali resurslardan samarali foydalanishga xizmat qiladi. LPM orqali universitetlar bir vaqtning o‘zida bir nechta loyihani sinxronlash va o‘zaro ta’sirini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu esa har bir loyiha natijasini yanada yuksaltiradi.

Universitetlar LPMni amalga oshirish orqali o‘z rivojlanish maqsadlariga mos keluvchi loyihalarni ustuvorlikda amalga oshirish uchun tanlaydi. LPM loyihalarni boshqarishda tanlanadigan metodika va vositalar hamda texnikalar yordamida loyihalarni bir-biriga integratsiyalash va umumiy rivojlanish strategiyasiga moslash imkonini beradi. Bu usul universitetda mavjud cheklangan resurslarni – moliyaviy, insoniy va texnik imkoniyatlarni – aniq maqsadli taqsimlash va ulardan maksimal darajada foydalangan holda natijalarga erishish uchun qo‘llaniladi. LPM orqali universitetlar loyihalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va resurslarning taqsimotini to‘g‘ri boshqarib, umumiy rivojlanishga xizmat qiladigan strategik maqsadlarni amalga oshirishda katta muvaffaqiyatlarga erishadi.

Universitetlar uchun LPMning ahamiyati ayniqsa loyihalardagi risklarni boshqarish imkoniyati bilan ham bog‘liq. Har bir loyiha o‘ziga xos xatarlar va tahdidlarga ega bo‘ladi, va ularning universitet faoliyatiga salbiy ta’sirini kamaytirish LPMning asosiy vazifalaridan biri sanaladi. Risklarni oldindan aniqlash va ular bilan ishslash universitetga moliyaviy va operatsion barqarorlikni saqlash imkonini beradi. Bu usul orqali loyihalardagi xatarlarni kamaytirish orqali ta’lim va ilmiy tadqiqot jarayonlari uzluksiz va sifatli amalga oshiriladi.

LPM universitetlarni innovatsiyalar joriy etishga ham undaydi. Bu menejment usuli orqali universitetlar o‘z faoliyatida yangi texnologiyalar, ta’lim metodikasi va ilmiy ishlanmalarini keng joriy etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Innovatsiyalarni qo‘llash orqali universitetlar raqobatbardoshlikni oshirib, zamonaviy ta’lim bozorida o‘z o‘rnini mustahkamlashga muvaffaq bo‘ladi. Shu bilan birga, LPM universitetlar uchun innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda yordam beradi, bu esa nafaqat ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi, balki ilmiy tadqiqotlarda ham yangi g‘oyalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Loyiha portfeli menejmenti jarayonining samarali amalga oshirilishi uchun universitetlar bir qancha tamoyillarni nazarda tutishi lozim. Avvalo, har bir loyiha universitetning strategik maqsadlari va yo‘nalishlariga mos kelishini ta’minlash zarur. Bu esa umumiy rivojlanish uchun kerakli bo‘lgan resurslar to‘g‘ri ishlatilishini kafolatlaydi. Boshqa tamoyil esa loyihalarga ustuvorlik belgilashdir. LPMda universitet uchun eng foydali loyihalarga ustuvorlik berish kerak bo‘lib, bu resurslarni eng yuqori samara beruvchi loyihalarga yo‘naltirish imkonini beradi.

Risklarni minimallashtirish tamoyili esa har bir loyiha doirasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatarlarni oldindan aniqlash va ularni minimallashtirishga qaratilgan. Universitetda bu tamoyilning to‘g‘ri qo‘llanilishi umumiy barqarorlikni ta‘minlaydi va loyihalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga xizmat qiladi. LPM orqali resurslarni integratsiyalash universitetning ichki va tashqi resurslaridan maksimal darajada foya olish imkonini beradi. Bu esa loyihalarni samarali boshqarish va umumiy rivojlanishga xizmat qiladigan strategik maqsadlar uchun zaruriy bo‘lgan resurslarni to‘g‘ri taqsimlashni ta‘minlaydi.

Universitetlar o‘z faoliyatida LPMni samarali qo‘llagan holda ilmiy tadqiqot va ta’lim sifatini oshirishga erishadi. Sifatli ta’lim va tadqiqot loyihalari orqali universitetlar o‘z reytingini oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Universitetlarda LPMning qo‘llanilishi ularga raqobatbardoshlikni ta‘minlash imkoniyatini ham beradi. Bu usul orqali universitetlar o‘zining ilmiy va ta’lim salohiyatini yuksaltirib, raqobat kuchaygan olyi ta’lim sohasida barqaror o‘sishni ta‘minlaydi.

Shuningdek, universitet imijining rivojlanishi va innovatsion g‘oyalarning joriy etilishi universitetni innovatsion va barqaror tashkilot sifatida shakllantirishga yordam beradi. Bu esa talabalar, ilmiy xodimlar va homiyalar e’tiborini jalb qilish imkonini yaratadi. LPM orqali universitetlar yangi texnologiyalarni, ta’lim uslublarini va ilmiy yutuqlarni tezroq qabul qilishi, o‘z faoliyatini muntazam rivojlanterib borishiga olib keladi.

Loyiha portfeli menejmenti universitetlarda o‘z strategik maqsadlariga erishish va loyihalarni samarali boshqarishni ta‘minlash uchun zaruriy vosita bo‘lsa-da, uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi qator qiyinchiliklarni yengib o‘tishni talab qiladi. Universitetlar turli xil cheklovlari va qarama-qarshiliklar bilan duch keladi va ularning barchasi LPMning samaradorligini ta‘minlash uchun hal qilinishi kerak. Ushbu qiyinchiliklarni tushunish va ularni yengib o‘tish universitetlarda LPMni muvaffaqiyatli tatbiq qilishga ko‘maklashadi.

Irinchi va eng ko‘p uchraydigan muammo bu — resurs yetishmasligi. Universitetlarda moliyaviy mablag‘lar, malakali kadrlar va texnik resurslarning yetishmasligi LPMning samarali ishlashini qiyinlashtiradi. Moliyaviy cheklovlari loyihalarni amalga oshirishda keng miqyosli imkoniyatlarni yaratishga to‘sinqlik qilishi mumkin. Ushbu muammoni yengish uchun universitetlar turli grant dasturlari va investorlarni jalb qilishga e’tibor qaratishlari kerak. Moliyaviy manbalarni kengaytirish maqsadida xususiy sektor bilan hamkorlikni rivojlanterish va chet eldag'i ta’lim va tadqiqot tashkilotlari bilan hamkorlik qilish orqali qo‘sishma resurslarni jalb qilish muhim. Shuningdek, davlat tomonidan beriladigan subsidiya va grant dasturlaridan samarali foydalanish orqali ham universitetlar moliyaviy qiyinchiliklarni yengib o‘tishi mumkin.

Ikkinchi qiyinchilik — kadrlar malakasini oshirish masalasidir. LPMni muvaffaqiyatli boshqarish uchun malakali va tajribali loyiha menejerlari zarur. Biroq, universitetlarda bunday kadrlar yetishmasligi muammosi mayjud bo‘lishi mumkin. Kadrlarning yetishmasligi yoki

malakasizligi loyihalarni samarali boshqarishni cheklaydi va natijalarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu masalani hal qilish uchun universitet rahbariyati loyiha menejerlari uchun maxsus treninglar va o'quv dasturlari tashkil qilishi lozim. Xodimlarni malaka oshirishga yo'naltirish va ularga o'z bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratish universitetning umumiy loyihalarni boshqarish qobiliyatini oshiradi. Bundan tashqari, xalqaro trening va amaliyot dasturlaridan foydalanib, universitet kadrlarini tajriba almashish orqali rivojlantirish LPM samaradorligini oshirishi mumkin.

Uchinchi qiyinchilik — loyihalar o'rtasidagi o'zaro koordinatsiyani ta'minlashdir. Universitetda bir vaqtning o'zida bir nechta loyiha amalga oshirilganda, ularning o'zaro bog'liqligi va sinxronligi muhim ahamiyat kasb etadi. Agar loyihalar o'rtasidagi muvofiqlik va o'zaro ta'sir inobatga olinmasa, bu umumiy rivojlanish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Universitetlar loyihalarni samarali boshqarish uchun yaxshi ishlab chiqilgan koordinatsion tizimni joriy etishlari kerak. Bu tizim loyihalar o'rtasidagi ma'lumot almashinushi, resurslarni taqsimlash va o'zaro bog'liqlikni nazorat qilishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Samarali koordinatsiya o'rnatish uchun universitetlarda maxsus loyiha boshqaruvi bo'linmalari yoki koordinatsion guruhlar tashkil etilishi lozim.

Universitetlar uchun LPMni muvaffaqiyatli joriy qilishda qaror qabul qilish jarayoni ham o'ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi. LPM doirasidagi loyihalarga ustuvorlik berish, ularning universitet strategiyasiga mosligini baholash va resurslar taqsimotini to'g'ri belgilash zarurati qaror qabul qilishni murakkablashtiradi. Bu jarayonda universitet rahbariyati loyihalarning samaradorligini baholash uchun maxsus vositalar va indikatorlarni ishlab chiqishi va ulardan foydalanishi lozim. Har bir loyihaning strategik ahamiyatini aniq baholash va ularni ustuvorlikka qarab tartibga solish orqali qarorlar qabul qilish osonlashadi va universitetning rivojlanish jarayoni izchil amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, universitetlarni strategik boshqarishda loyiha portfeli menejmenti asosiy rol o'ynaydi. Bu uslub orqali universitetlar o'z loyihalarini tartibga solish, resurslarni samarali boshqarish va strategik maqsadlarga erishishda katta yutuqlarga erishish imkoniga ega bo'ladi. LPM universitetlarga zamonaviy innovatsiyalarni tezroq joriy etish, raqobatbardoshlikni oshirish va ta'lim sifatini yanada yaxshilash imkoniyatini beradi. Universitetlar LPMni muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali o'z faoliyatini doimiy ravishda rivojlantirib borish va zamonaviy ta'lim talablariga moslashish imkoniga ega bo'ladi. Shu bilan birga, LPMdan foydalanish universitetning barqaror va izchil rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Малышева Л. А. Стратегического управления в вузах: технологии и инструменты //Университетское управление: практика и анализ. – 2013. – №. 1 (83). – С. 078-087.

2. Мазелис Л. С., Солодухин К. С. Модели оптимизации портфеля проектов университета с учетом рисков и корпоративной социальной ответственности //Университетское управление: практика и анализ. – 2012. – №. 4. – С. 53-56.
3. Маликова Д. М., Газитуллина И. Р. Роль и значение управления проектами на предприятиях //Технические университеты: интеграция с европейскими и мировыми системами образования. – 2017. – С. 109-115.
4. Островкин Д. Л. Стратегическое управление вузом на основе инструментов проектного менеджмента: магистерская диссертация : дис. – б. и., 2021.
5. Бабенко Е. И., Загороднова Е. П. Проектная деятельность университета на основе стратегического анализа //Ars Administrandi. – 2011. – №. 4. – С. 29-35.
6. Dunowski J. et al. Implementing university collaboration strategies through portfolio management //Paper to be presented at the Summer Conference. – 2010. – С. 16-18.
7. Pinterska V., Lohinov O., Lohinova L. Portfolio method of scientific activity management of higher education institutions //Сучасний стан наукових досліджень та технологій в промисловості. – 2019. – №. 2 (8). – С. 86-96.